

---

## Respublikamizda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish bizga nima beradi?

**Birinchi**dan, ma'lum bir sanada aholining aniq soni (yoshi va jinsi tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi (keng qamrovli), barcha aholi punktlari bo'yicha soni, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, aholi bandligi (kasbi va mutaxassisligi) va ishsizligi, daromad olish manbalari, nogironligi bo'yicha batafsil ma'lumot olinadi.

**Ikkinchi**dan, aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ishlatiladi.

**Uchinchi**dan, aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

**To'rtinchi**dan, Respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot sifatida foydalaniladi.

**Beshinchi**dan, statistika idoralari tomonidan tashkil etiladigan tanlama kuzatuvlarni tashkil etishda ma'lumotlar bazasi sifatida qo'llaniladi.

**Oltinchi**dan, Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ko'rsatkichlarini shakllantirish va monitoringini yuritishda xizmat qiladi.

**Yettinchi**dan, aholi punktlarining infratuzulmasini yaxshilashda, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar, dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

**Sakkizinchi**dan, Xalqaro tashkilotlar va foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tahlillar uchun keng qamrovli axborotlar manbai hisoblanadi.

Bunday ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish, bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat va aholi salomatligi bo'yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishi, fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlash uchun zarurdir.

**Tuman statistika bo'limi yetakchi mutaxasisi**

**A. Abduxamitov**

2022-07-08 16:32:55